

TEXNOLOGIYA FANI MASHG'ULOTLARIDA O'QUVCHILARGA MEHMONDORCHILIK ODOBI BO'YICHA TUSHUNCHALAR BERISH

Umarov Rahim Tojievich, Yusupov Kermon Yasinovich,

Isoqov Shohrux To'rabek o'g'li

A.Qodiriy nomidagi JDPU, Jizzax sh., O'zbekiston

e-mail: umarovr@jdpu.uz

Annotatsiya: Ushbu maqolada texnologiya fanidan mashg'ulotlarda o'quvchilarga mehmonga borishning, mehmon bo'lishning ham o'ziga yarasha odobi va madaniyatlari bo'yicha tushunchalar berishga e'tibor qaratilgan.

Kalit so'zlar: mehmon, mehmondo'stlik, mezbon, mehmon kutish, ziyofat, taom, mehmondorchilik, an'analar, sovg'a.

Аннотация: Эта статья посвящена тому, чтобы дать учащимся представление о надлежащих манерах и культуре посещения и пребывания в качестве гостя на уроках технологии.

Ключевые слова: гость, гостеприимство, хозяин, гостеприимство, вечер, угощение, гостеприимство, традиции, подарок.

Annotation: This article is about giving students an idea of the proper manners and culture of attending and being a guest in technology classes.

Keywords: guest, hospitality, host, hospitality, evening, treat, hospitality, tradition, gift.

Mehmonga borishning, mehmon bo'lishning ham o'ziga yarasha odob va madaniyatlari mavjud. Avvalo biron uzrli sabab bo'lmasa yoki shar'iy mone'lik bo'lmasa, chaqirilgan joyga albatta borish darkor. Rasululloh (sollallohu alayhi va sallam) ko'plab hadislarida mehmonga chaqirganda borish musulmonlarning bir-birlari ustidagi haqlaridan ekanini uqtirib: "Birodaring seni mehmonga chorlasa, bas, unga ijobat et", deb buyurganlar. Chaqirilgan joyga bormasangiz, do'stingizni ranjitgan bo'lasiz, jamiyat munosabatlariga rahna solasiz.

Ushbu maqolada texnologiya fanidan mashg'ulotlarda o'quvchilarga mehmonga borishning, mehmon bo'lishning ham o'ziga yarasha odobi va madaniyatlari bo'yicha tushungalar berishga e'tibor qaratilgan.

Umumiy o'rta ta'limning Texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti asosida ishlab chiqilgan fan dasturiga ko'ra 9-sinfda o'tiladigan Texnologiya fani "Servis xizmati" yo'nalishining Ro'zg'orshunoslik asoslari qismida "23-mavzu: Dasturxon tuzash qoidalari. Mehmon kutish odobi."(1 soat ajratilgan) mavzusi kiritilgan. Mavzuni mehmon kutish odobi qismni o'tish jarayonida maktab Texnologiya fani

o'qituvchilari maqolada keltirilgan m'lumotlardan mashg'ulot davomida foydalanishsalar maqsadga muvofiq bo'ladi.

Dastlab, o'quvchilarga Mehmondorchilik odatda mehmonni kutish, uning hurmatini joyiga qo'yish, unga munosib dasturxon tuzash (millatiga, mavqeyiga, yoshiga va jinsiga qarab) va uni ehtirom bilan kuzatib qo'yishdek muhim tadbirlardan iborat ekanligi to'g'risida tushunchalar berish lozim. Mehmon degani forsiy tildan olingan bo'lib "mehmon, tashrif buyuruvchi" degan ma'noni anglatadi.

Avvaldan belgilab chaqiriladigan mehmondorchilik ham har xil bo'ladi. Mehmonga chaqirish musulomonlar o'rtasida mehr-oqibatni shakllantiradigan, qalblarni bir-biriga yaqin qiladigan fazilatli amallardandir. Gohida mezbon sizning yolg'iz o'zingizni yoki oilaviy ravishda mehmonga chaqirishi mumkin. Bu siz bilan oilangizga ko'rstatilgan yuksak ehtirom. Shunday holatlarda agar cho'ntagingiz ko'tarsa, mehmonga chaqirayotgan xonadon egasiga qandaydir sovg'a, shirinlik va hokazo xarid qilsangiz nur ustiga a'lo nur bo'ladi. Bu uning ehtiromiga kichik bir ramziy javob bo'lib xizmat qiladi.

Mehmon mezbon ko'rsatgan o'ringa o'tiradi. Bordiyu mehmon o'zboshimchalik bilan joy tanlasa, ehtimol mezbonning ahli ayoli ko'rinadigan joyga o'tirib qolishi mumkin. Bu esa mezbonga aziyat yetkazadi. Agar ziyofatda yoshi ulug' odamlar ham o'tirishgan bo'lsa, ulardan avval taomga qo'l uzatmaslik lozim. Yoshi ulug'larni hurmat qilish dinimiz talabidir. Mehmonning ovqat keladigan tomonga hadeb o'girilaverishi ham yaxshi emas.

Mehmonga borgan kishi o'z odobini saqlagan holda o'tirishi lozim. Mezbon choy, ovqat va hokazo keltirgani chiqib ketishi bilan hali uni, hali buni ushlab tomosha qilish, darrov televizorni yoqib, u kanaldan bu kanalga olish yoki mezbonning uy telefonidan yoxud stol ustidagi qo'l telefonidan beruxsat foydalanish mehmon bo'lish odobiga ziddir. Lekin, kitob va hokazolarni ko'rish bundan mustasno. Qisqasi, hali o'rtada iliqlik paydo bo'lib ulgurmasdan burun mehmon o'zini o'z uyidagidek his qilib yubormasligi kerak.

Lekin o'ta tortinchoqlik, o'ta sertakalluflik, o'ta kamgaplik ham yarashmaydi. Avvalo inson qaysi joyda o'zini qanday tutishni ham uddalay bilishi kerak. Faqat yolg'iz bir kishi yoki kamchilik chaqirilgan ziyofat bo'lsa, demak bu mezbonning chaqirilgan kishilarga alohida hurmat va ehtiromi borligidan dalolat qiladi. Bunda hadeb tortinavermasdan, mezbon bilan yaqindan suhbat lashish maqsadga muvofiq.

Shu o'rinda Kaykovusning "Qobusnoma" asarining 12-bobi "Mehmon olmoq va mehmon bo'lmoq zikrida" deb nomlanib, unda o'z zamonasining mehmondorchilik urf-odatlarini bilan bog'liq hayotiy masalalarga alohida e'tibor qaratilganligi to'g'risida o'quvchilarga to'xtalib o'tish lozim. U farzandiga

mehmonga borish borasida shunday deydi: “Ey farzand, agar mehmon bo‘lsang, har kishinikiga mehmon bo‘lib boravermag‘il, chunki hashamat shavkatinga ziyon yetkarursan. Agar mehmon bo‘lib bir yerga borsang, ko‘p och bo‘lib bormag‘il va tez yurib bormag‘ilkim, taom yemakdin ma‘zur bo‘lib o‘ltirsang, mezbon ozor topor. Agar taomni ko‘p esang, xalqning ko‘ziga yomon ko‘rinur. Shuning uchun mezbon ning uyiga kirsang o‘zinga munosib joyga o‘lturg‘il. U garchi oshno kishingni uyi bo‘lsa ham taom va nabizning ustida korfarmoliq qilmag‘il, ya’ni mezbonning xizmatkorlariga: “Ey falonchi, bu uy mening o‘z uyimdir va tabaqni u erga qo‘yg‘il, o‘zgalarning taom va kosasiga qo‘l urmag‘il”-demag‘il. O‘z chokarlaringga zulolni olib bormag‘ilkim, deb durlar, mehmonning uyidan narsa olish uyat”.

Mehmonlar oldiga tortiladigan narsalardan ziyofat davomida bahramand bo‘lish joiz. Dasturxon ustidagi narsalarni mezbon ruxsatisiz uyga olib ketish mumkin emas. Chunki, dasturxonga qo‘yilgan narsalarning barchasi ham mehmonning mulki hisoblanmaydi. Yeyilgandan ortgani uy egasining mulkida qolaveradi.

Mehmondorchilikka boy yoki kambag‘al ekaniga qaramasdan borish kerak. Agar nafl ro‘za tutgan kishi mehmondorchilikka chaqirilsa, ro‘zasini ma’lum qiladi, agar mezbon “bormasang bo‘lmaydi” deb turib olsa, boradi. Ziyofatga borganida ovqatlanmay o‘tirishi mezbon va boshqalarga malol kelmasa, ovqat yemagani ma’qul, agar malol ko‘rsa, nafl ro‘zasini ochib, boshqa kuni qazosini tutib beradi.

Agar bir kishi mehmonga chaqirilgan bo‘lsa, u ziyofat egasining iznisiz boshqa bir odamni boshlab borishi noto‘g‘ri ish hisoblanadi. Chunki, ziyofat ma’lum sonli kishilar uchun mo‘ljallab tayyorlangan bo‘lishi mumkin. Mezbon mo‘ljallagan sondan ortiqcha odam borsa, mezbon noqulay ahvoda qolishi mumkin. Bordiyu, shunday bo‘lib qolsa, ya’ni chaqirilmagan odam boshlab borilsa, bu haqda mezbondan avvaldan ruxsat olish yoki uyiga borganda holatni tushuntirib, izn so‘rash lozim bo‘ladi. Bordiyu, mezbon narigi odamni mehmon qilishga rozi bo‘lmasa, bundan xafa bo‘linmaydi.

Sahobai ikiromlardan biri Nabiy (sollallohu alayhi va sallam) bilan birga bir necha kishini mehmonga chaqiradi. Ular ziyofat sohibining uyiga yo‘l olishar ekan, boshqa bir chaqirilmagan inson ham ularning ortidan ergashib boradi. Mezbon uyiga etib borishganda Nabiy (sollallohu alayhi va sallam): “Mana bu kishi chaqirilmagan edi, lekin ortimizdan ergashib keldi agar ruxsat bersang kiradi, bo‘lmasa ortiga qaytib ketadi”, dedilar. Shunda xonadon sohibi: Albatta ruxsat beraman. U ham uyga kirsin, deya haligi kishini ham mehmon qiladi. Ushbu hadisdan ma’lum bo‘ladiki, chaqirilmagan mehmon mezbon izni bilan ziyofatga qo‘shilar ekan. Chaqirilmagan mehmon deganda kutilmagan mehmonni tushunmaslik kerak. Chaqirilmagan

mehmon deganda, biror joyda xos ziyofat bo‘layotganini bilib, chaqirimasa ham borgan yoki boshlab borilgan kishiga aytiladi. Mehmonning hurmati uchun chaqirilmagan mehmonni ham ikrom qilish maqsadga muvofiqdir.

Biror kishining xonadonida mehmon bo‘layotgan kishi mezbenni qiyin ahvolga solib qo‘yadigan darajada ko‘p muddat qolib ketmasligi kerak. Mehmonning izzati uch kun. Bundan oshirmaslikka harakat qilish kerak. Payg‘ambarimiz sollallohu alayhi vasallam: “Mehmondorchilik uch kundir. Undan oshig‘i unga sadaqadir”, – dedilar (Buxoriy).

Mahmud Qoshg‘ariy aytadi: “Befahm mehmon uy egasini xijolatga qo‘yadi”. Bir ulug‘ kishini mehmonga chaqirishganida: “Taklifingni uch shart bilangina qabul qilaman. Birinchisi – bozordan ataylab narsa sotib olmaysan. Ikkinchisi – uyingda borini yashirmay oldimga qo‘yasan. Uchinchisi – ayol va bolalaringning haqini menga yedirmaysan”, – degan ekan.

Mehmonga borgan odam mezbon tomonidan tortiq qilingan taomlarni tanqid qilmasdan, xalq tili bilan aytganda injiqlik qilmasdan tanovul qilishi lozim. Garchi, taom uning nozik ta‘biga mos ravishda, a‘lo darajada pishirilmagan bo‘lsa ham mezbonning ko‘ngliga har xil fikr kelib qolmasligi uchun buni bildirmaslikka harakat qiladi. Mehmon mezbenni turli yumush va iltimoslar bilan qiynab qo‘ymasligi lozim.

Mehmonning ikromi borasida bir ibratli hikoyat: Hikoya qilishlaricha, bir paytlar uch yuz asirni amir Mo‘min ibn Zoidning oldiga keltirishdi. Amir asirlarning barini o‘limga hukm qildi. Shu payt asirlar orasidan bir yigit otilib chiqdi-da, amirga: “Ey amirim, sizni Xudoga topshirdik, ayting, o‘limimiz oldidan suv berishsin, dedi. Amir asirlarga suv berishni mulozim lariga amr qildi. Shunda o‘sha yigit yana o‘rnidan turib, amirga qulluq qildi va: “Ey ulug‘ amir, bugun endi sizning mehmoningiz bo‘ldik, mehmonga muruv vat va izzat-ikrom ko‘rsatish esa mezbonning burchi. Siz burchingizga sodiq bo‘ling”, dedi. “rost so‘zladim, yigit”, dedi amir va barcha asirlarni ozod qilib yubordi.

Xulosa qilib shuni aytganda o‘tmishdan to shu kungacha ota-boblarimizdan bizgacha yetib kelgan yillar davomida sayqallangan udum va an‘analarimizdan biri bo‘lgan mehmonga borishning, mehmon bo‘lishning ham o‘ziga yarasha odob va mehmondorchilik madaniyatini yoshlarimiz ongiga singdirish hamda ularda mehmonlarni kutish va kuzatishda hurmatini, izzat ikromini joyiga qo‘yish ko‘nikmalarini shakllantirish ishlarini oilada va ta‘lim muassasalarida to‘g‘ri tashkil qilish muhim tadbirlardan biri hisoblanadi. Bugungi kunda harbir kishi, ayniqsa yoshi ulug‘ kishilar buni aslo yodidan chiqarmasligi lozim. Aks holda ma‘lum bir vaqtlar kelib bu an‘ana va udumlarimiz unut bo‘lib ketish mumkin.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Umumiy o'rta ta'limning texnologiya fanidan davlat ta'lim standarti va o'quv dasturi, Toshkent-2017,103 b
2. O'zbek tilining izohli lug'ati. 5-jildi, "O'zbekiston milliy ensiklopediya si" Davlat ilmiy nashriyoti, Toshkent-2020,
3. Kaykovus. Qobusnoma, T.: "Istiqlol", 1994 y.,174 b.
4. Maxmudov K. Mehmonnoma, Toshkent: "YOsh gvardiya", 1989 y.,240 b.
5. Sobirov A.A. Mehmon kutish odobi. "Hidoyat" jurnali 2011 yil, 7-son.
6. Umarov R.T., Ortiqova O. SH., Isoqov SH. T. Mehmonning hurmati mezbanning izzati, Kazan, NZS vipusk №11, 2021 g., s12